

## **“O’zbek xalq dostonlarining ijro varianti” mavzuida ilmiy anjuman tashkil etildi**

O’zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida “O’zbek xalq dostonlarining ijro varianti” mavzusida ilmiy anjuman tashkil etildi. Unda YUNESCO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi vakillari, yetakchi soha mutaxassislari, baxshichilik sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, baxshichilik maktablari o'quvchilari ishtirok etishdi.





Anjumanda "Alpomish" dostonining ijro variantlari kitobi, "Baxshilar to'plami" audio albomlarining taqdimoti ham o'tkazildi.

Anjumanni joriy yilning 16-dekabrida xalq og'zaki ijodining yorqin namunasi bo'lgan baxshichilik san'atiga qaratilayotgan e'tiborning xalqaro e'tirofi sifatida YUNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga kiritilishining amaliy natijalariga qo'yilgan debochasi deyish mumkin.

O'zbek xalq eposi sanalgan "Alpomish" dostonining qirqdan ortiq varianti bo'lib, Qoraqalpog'iston, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo baxshichilik maktablarida rang-barang ijro uslubiga egaligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotchi O'ktam Hakimov ijodiy ekspeditsiyalari davomida 18 baxshi tomonidan dostonning ijro variantlari to'planib, nashrga tayyorlangan. Kitobda dostonlar ijrosidagi o'ziga xoslik, jonli kuy va ovoz, ustoz-shogirdlik an'anasiga alohida ahamiyat berilgan. O'zbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonovning ta'kidlashicha, kitobdagi yozuv matnning o'zi, unga jonli ovoz va soz qo'shilsa, tirik qo'shiqqa aylanib odamlarning ruhiga, yuragiga ta'sir etadi. Shu ma'noda "Baxshilar to'plami" audio albomi ma'naviy boyliklarimizni asrab-avaylash yo'lida qilingan samarali ishlardandir.